# SMTIda Xalqaro xotin-qizlar kuni nishonlandi



Joriy yil 7-martda SMTIda Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan tantanali tadbir bo‘lib o‘tdi. Institut rahbariyati va erkaklar jamoasi xotin-qizlarni bayram bilan tabrikladi. Ularga minnatdorlik so‘zlari, mustahkam sog‘lik, baxt-saodat va farovonlik va yana bir qator ezgu tilaklar bildirildi.

"Bugungi kunda SMTI xodimlarining 30 foizini ayollar tashkil etadi va ularning Institut faoliyatiga qo‘shgan hissasi haqiqatan ham beqiyosdir," - deya qayd etdi SMTI direktori Eldor Aripov. U ayollarga yangi kasbiy zafarlar tilab, ko'rsatayotgan mehnatlari va fidoyiliklari uchun samimiy minnatdorchilik bildirdi.




heir hard work and dedication.